

2019 -yil yanvar-sentyabr holatiga

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilning yanvar-sentyabr holatiga aholi umumiy daromadlari 251,8 trln. so'mni, nominal o'sish sur'ati 122,3% ni tashkil etdi.

Aholi umumiy daromadlari:

251,8 trln. so'm



Umumiy hajmi

122,3%



Nominal o'sish sur'ati

107,1%




Real o'sish sur'ati

Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri - iste'mol narxlari indeksidan (INI) foydalaniladi. Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 107,1 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlari:

7,5 mln. so'm



Aholi jon boshiga
umumiy daromadlari

120,0%



Nominal o'sish sur'ati


105,2%



Real o'sish sur'ati

2019-yilning yanvar-sentyabr holatiga aholi jon boshiga umumiy daromadlari 7,5 mln. so'mni, nominal o'sish sur'ati 120,0% ni, real o'sish sur'ati esa 105,2% ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-sentyabr holatiga O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari hajmi, ming so'm




Aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlari bo'yicha o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahrida - 14761,7 ming so'm hamda Navoiy (11629,0 ming so'm), Buxoro (9421,1 ming so'm) va Xorazm (7935,3 ming so'm) viloyatlarida qayd etilganligi kuzatildi.

Aholi jon boshiga daromadlarning eng quyi ko'rsatkichlari esa Qoraqalpog'iston Respublikasi (5437,0 ming so'm) hamda Namangan (5909,6 ming so'm) va Farg'ona viloyatlarida (5828,1 ming so'm) qayd etildi.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Toshkent shahri (12,2%) va Andijon viloyatiga (7,1%) to'g'ri keladi. Shuningdek, Navoiy (6,9%), Qoraqalpog'iston Respublikasi (6,6%), Sirdaryo (5,6%) hamda Namangan (5,7 %) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromad ko'rsatkichlarining real o'sishi respublika darajasidan yuqorini tashkil etgan.




2019-yilning yanvar-sentyabr holatiga O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarining real o'sish sur'atlari, %



Aholi umumiy daromadlari hajmining sezilarli darajada o'sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida 69,5% ulushga ega bo'lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) va 25,1% ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.


Aholi umumiy daromadlari tarkibi



- Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar
- Transfertlardan daromadlar
- Mol-mulkdan olingan daromadlar
- Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar



O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi (hudud aholi umumiy daromadlariga nisbatan, %)



- Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar
- Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan va mol-mulkdan olingan daromadlar
- Transfertlardan daromadlar


Hududlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) eng yuqori ulushi Navoiy (83,4%) viloyatida kuzatildi. Aksincha, Toshkent shahri, Xorazm, Qoraqalpog'iston Respublikasida, Samarqand, Farg'ona, Andijon hamda Namangan viloyatlari o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

Shuningdek, Xorazm viloyatida transfertlardan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlariga nisbatan 30% dan yuqori ulushni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

Aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar va yollanma ishchilarning daromadlari) sezilarli ulushni tashkil etadi.

69,5%



Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi

119,8%



2018 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan nominal o'sish sur'ati


2019-yilning yanvar-sentyabr oylari ma'lumotlariga ko'ra mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi 69,5% ni, nominal o'sish sur'ati 2018-yilning mos davriga nisbatan 119,8% ni tashkil etdi hamda aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 14,0% ga o'sishini ta'minladi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar tarkibi

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar yollanma ishchilarning daromadlari hamda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlardan tashkil topadi.



2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yollanma ishchilarning daromadlari:




Aholi umumiy daromadlaridagi ulushi

128,6%



O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

2019 yilning yanvar-sentyabr holatiga hududlar bo'yicha yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, %)



Yollanma ishchilar daromadlarining eng yuqori nominal o'sish sur'ati Jizzax (132,6%), Namangan (132,3%) va Navoiy (131,5%) viloyatlarida qayd etildi.

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar


42,6 %



Aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi




114,8 %



2018-yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan nominal o'sish sur'ati

Hududlar bo'yicha umumiy daromadlar tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi, %




Hududlarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi turlicha va 16,1% dan (Toshkent shahrida) 58,8% gacha (Jizzax viloyatida) o'zgarib turadi.




Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1% ga o'sishi umumiy daromadlar hajmining 0,45% ga o'sishiga olib keladi.

Hududlar bo'yicha mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1% ga o'sishining aholi umumiy daromadlari hajmi o'sishiga ta'siri, %



Jami mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromatlarda hududlarning ulushi, %



Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning asosiy ulushi Samarqand (11,7%), Andijon (9,8%) va Qashqadaryo (9,5%) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Kamroq ulushga ega bo'lgan hududlar Sirdaryo viloyati (2,6%), Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,1%) hamda Navoiy (4,7%) viloyati hisoblanadi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar

8,8 trln. so'm




Mol-mulkdan olingan daromadlarning umumiy hajmi

136,1%




2018-yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati

3,5%



Aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi

Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibi, %



- Foizlar
- Dividendlar
- Muallif haqi
- Boshqa mulkiy daromadlar

Aholi umumiy daromadlari hajmining o'zgarishiga mol-mulkdan olingan daromadlarning ta'siri juda kam. Joriy davrda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlari hajmining 1,1% ga o'sishini ta'minladi.




Mol-mulkdan olingan daromadlar


2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar hajmining uchdan ikki qismi Toshkent shahri hissasiga to`g`ri kelib, 66,7% ni tashkil etdi. Toshkent (5,5%), Samarqand (4,4%), va Farg'ona (3,8%) viloyatlari keyingi yuqori ulushga ega bo`lgan hududlar hisoblanadi.



Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi



Mol-mulkdan olingan daromadlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, %




2019 yilning yanvar-sentyabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra o'tgan yilning mos davriga nisbatan mol-mulkdan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 136,1% ni tashkil etdi. Hududlar bo'yicha eng yuqori o'sish sur'ati Namangan viloyatida (141,7%) qayd etildi.

Transfertlardan olingan daromadlar

Ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi 1,1% punktga oshdi va 25,1% ni tashkil etdi.


Transfertlardan olingan daromadlar tarkibi



Transfertlardan olingan daromadlar ijtimoiy transfertlardan (pensiylalar, nafaqalar, stipendiyalar) va boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlardan tashkil topadi.

2019 yilning yanvar-sentyabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning 39,1% ni ijtimoiy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qilgan bo'lsa, 60,9% ni boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qildi.

Ijtimoiy transfertlarning turlari bo'yicha o'sish sur'ati, %




Joriy davrda ijtimoiy transfertlarning aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi 9,8% ni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 131,3% ni tashkil qildi.

2018-yilning mos davri ma'lumotlari bilan taqqoslaganda pensiyalarning o'sish sur'ati 129,7% ni, nafaqalarning o'sish sur'ati 144,0% ni, stipendiyalarning o'sish sur'ati esa 125,3% ni tashkil etdi.

O'tgan davr mobaynida pensiya, nafaqa va stipendiyalarning o'zgarishi aholi umumiy daromadlarining 2,9% ga o'sish imkonini berdi.


Ijtimoiy transfertlar tarkibi, %



Ijtimoiy transfertlar tarkibida pensiyalar eng ko'p ulushni 82,6% ni tashkil qilgan bo'lsa, nafaqalar - 13,3% ni, stipendiyalar - 4,1% ni tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida jami 3,3 trln. so'm miqdorida nafaqa va moddiy yordamlar ajratildi. Shundan 52,4% byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va 47,6% respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan.

Hududlar bo'yicha ijtimoiy nafaqalarning shakllanish manbalari, %




Boshqa joriy transfertlar




2019-yilning yanvar-sentyabr oylari bo'yicha boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining nominal o'sish sur'ati 125,3% ni tashkil etdi. Aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4% punktga oshib, 15,3% ni tashkil etdi. Ushbu daromadlarning o'zgarishi aholi umumiy daromadlari nominal qiymatining 3,8% ga o'sishini ta'minlab berdi.

Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining ulushi, %



Aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar



2019-yil yanvar-sentyabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 60,2% ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning hudud aholi umumiy daromadlaridagi ulushi turlicha: eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (70,0%) kuzatilgan bo'lsa, eng kam ulush esa Toshkent shahrida (49,1%) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi, %

